

GUMANITAR YO'NALISHI TALABALARIDA INGLIZ TILINI O'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Qambarova Dilorom Yusupovna
Farg'ona davlat universiteti dotsenti

***Annotatsiya:** Maqolada Oliy ta'limning gumanitar yo'nalishi talabalarida ingliz tilini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari, ta'lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga oid ilmiy xulosalar asoslangan. Xususan, chet tilini o'rganishda, axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning bir qator afzalliklari asoslangan.*

***Kalit so'zlar:** oliy ta'lim, innovatsion metod, CEFR, IELTS, gumanitar, Creative Problem Solving, When pictures speak*

***Аннотация:** Статья основана на научных выводах об особенностях преподавания английского языка студентам гуманитарного направления высшего образования, повышению качества и эффективности образования за счет внедрения современных инновационных технологий в учебный процесс. В частности, существует ряд преимуществ использования информационно-коммуникационных технологий при изучении иностранного языка.*

***Ключевые слова:** высшее образование, инновационный метод, CEFR, IELTS, гуманитарный, Creative Problem Solving, When pictures speak.*

***Abstract:** The article is based on scientific conclusions about the peculiarities of teaching English to students of the humanitarian direction of higher education, increasing the quality and efficiency of education by introducing modern innovative technologies into the educational process. In particular, there are a number of advantages of using information and communication technologies in learning a foreign language.*

***Key words:** higher education, innovative method, CEFR, IELTS, humanitarian, Creative Problem Solving, When pictures speak*

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, Ingliz tilini tilini o'rganishga qiziqish oshib bormoqda va yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratib berildi. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek, "Hozirgi paytda xorijiy tillarni o'rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bugun jahon hamjamiyati o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan davlatlar uchun, xorijiy hamkorlar, investorlar, tadbirkorlar bilan hamjihatlikda, o'zining buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilish har qachongidan muhim hisoblanadi. Ushbu fikrlarning mantiqiy davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017 yil 20 apreldagi «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora - tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2909-son qarori xalq ta'limi tizimiga malakali kadrlar yetishtirishni takomillashtirish, xususan, oliy o'quv yurtlaridagi ingliz tilini o'qitishga ixtisoslashmagan gumanitar ta'lim yo'nalishi talabalarida ingliz tilida gapirish va eshitish sifatini yaxshilash va pirovard natijada, uzluksiz ta'lim tizimida ingliz tilini o'qitish samaradorligini oshirishga erishishni taqozo etmoqda.

Respublikamizda chet tilining o'qitilishi, chet tili o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholashning umumevropa ramkalari tavsiyanomalari (CEFR, IELTS) ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga ko'ra umumta'lim oliy ta'limlari va kasb-hunar kollejlari talabalarini uchun darsliklar yaratildi. Ushbu talablarga mos ravishda o'quv xonalari stendlar va yangi axborot kommunikativ texnikalar bilan jihozlandi. Chet tili o'rganishga bo'lgan talab ham kundan kunga oshib bormoqda. Chet tili fani to'rt aspect (o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish)ga bo'linib, ularning har biri bo'yicha alohida tushuncha va ko'nikmalar berilmoqda.

Til o'rganish va o'qitishda zamonaviy taxnologiyaning roli beqiyosdir. Texnologik vositalardan foydalanish chet tili o'rganishning har bir aspect (o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish)ida qo'l keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta kompyuter, player, DVD (CD), SMART TV disklarisiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab tushunish til o'rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda talaba bir paytning o'zida so'zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so'z boyligi va uning ma'nolariga e'tibor

berishi talab qilinadi. Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda talabalar ham axborot - kommunikatsion texnologiyalarni yaxshi bilish va ulardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi.

Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatish va o'rganish eng samador usullardan biridir. Bu jarayonda, jumladan:

- kompyuterlardan foydalanganda talaba chet tilidagi video roliklarni, namoyishlarni, dialoglarni, kino yoki multfilmlarni ham ko'rishi ham eshitishi mumkin;

- chet tilidagi radio eshittirishlar va televideniya dasturlarni eshitish va tomosha qilish mumkin;

- SMART TV lardan foydalanish mumkin.

Bu texnik vositalardan foydalanish gumanitar yo'nalish talabalarida chet tilini o'rganishlari jarayonini qiziarliroq va samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi. Bugungi kunda oliy ta'limlar va oliy ta'lim muassasalarida interfaol o'yinlar orqali dars o'tish an'anaga aylanib bormoqda. Ma'lumki, darsning turli xil o'yinlar asosida o'tilishi talabalarning imkoniyatlarini namoyish etish, diqqatni jamlash, bilim va ko'nikmalarini oshirish hamda kuchli bo'lishlarini ta'minlaydi. O'yin texnologiyasidan foydalanishning asosini talabani faollashtiradi va jadallashtiradi.

Pedagogik tadqiqotlarda, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda barqaror o'rnini topish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. Har qanday o'yin zamirida umumiy qabul qilingan ta'lim prinsiplari, taktikasi yotishi kerak. O'quv o'yinlariga o'quv predmetlari asos qilib olinishi kerak. O'yinlar jarayonida talaba oddiy darsga qaraganda bu mashg'ulotga qiziqibroq yondashadi va osonroq faoliyat ko'rsatadi. Ta'kidlash lozimki, o'yin eng avallo, o'qitishning bir usulidir.

Talabalar o'yinli darslarga qiziqib qatnashadilar, g'alaba qozonishga intiladilar, o'qituvchi ular orqali talabaga ta'lim-tarbiya ham beradi. Talaba inglizcha o'yin o'ynab, gapira olishiga ishonchi ortadi. Ma'lumki, hozirgi ta'lim jarayonida talaba sub'ekt bo'lishi lozim. Shunda ko'proq interfaol metodlarga e'tiborni qaratish ta'lim

samaradorligini oshiradi. Ingliz tili darslariga qo'yilgan eng muhim talablardan biri talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatishdir. Bugungi kunda ingliz tili o'qituvchilari Amerika Qo'shma Shtatlari, Angliya pedagoglari tajribasiga tayangan holda quyidagi innovatsion metodlardan foydalanib kelishmoqda:

- "Muammoli vaziyat yechimi" (Creative Problem Solving) bu usulni qo'llash uchun hikoyaning boshlanishi o'qib beriladi qanday yakun topishi talabalar, talabalar hukmiga havola qilinadi;

- "Quvnoq topishmoqlar" (Merry Riddles) talabalarga topishmoqlar o'rgatish Ingliz tilini o'rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o'zlariga notanish bo'lgan so'zlarni o'rganadilar va o'ylab topishmoq javobini topadilar;

- "Tezkor javob" (Quick answers) o'tilgan dars samaradorligini oshirishda yordam beradi;

- "Chigil yozdi" ("Warm-up exercises") talabalarni darsga qiziqtirish uchun sinfda har xil o'yinlardan foydalanish;

- "Pantomima" (pantomime) bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bo'lgan darsda yoki yozma mashqlar bajarilib, talabalar charchagan paytda foydalanilsa bo'ladi;

- "Hikoya zanjiri" (a chain story) usuli talabalarning og'zaki nutqini o'stirishda yordam beradi;

- "Rolli o'yinlar" (Acting characters) bu usul darsning barcha tiplarida qo'llanilishi mumkin. Hunarga o'rgatish uchun "Interpreter", "Translator", "Writer", "Poet" kabi kasbdagi kishilar darsda ishtirok etishib talabalar bilan suhbatlashishlari mumkin;

- "Allomalar yig'ini" (Thinkers meeting) U.Shekspir, A.Navoiy, Ibn Sino kabi shoirlar va olimlarni "taklif qilish" mumkin. Bunday paytda ular aytib ketgan hikmatli so'zlardan darsda foydalanish yoshlarni komil inson bo'lib tarbiyalanishiga yordam beradi;

- "Rasmlar so'zlaganda" (When pictures speak) usuli ancha qulay bo'lib, ingliz tilini o'rgatishda, talaba, talabalarning og'zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga oid rasmlardan foydalanish lozim;

- Kviz kartochkalari (quiz cards) talabalarning soniga qarab kartochkalar tarqatiladi va hamma talabalar bir vaqtda darsda ishtirok etish imkonini beradi bu esa vaqtni tejaydi. Ko‘rib chiqqanimizdek, har bir innovatsion texnologiya o‘ziga xos afzallik jihatlariga egadir. Bunday usullarning barchasida o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi hamkorlik, talabaning ta’lim jarayonidagi faol harakati ko‘zda tutiladi.

Bugungi kunda respublikamizning yetakchi mutaxassisleri tomonidan Oliy ta’lim muassasalarida yosh avlodga chet tillarni o‘rgatish, shu tillarda erkin muloqotga kirisha olishlari hamda chet tili darslarining sifati va samaradorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi ko‘plab zamonaviy o‘quv uslubiy materiallar, multimedia vositalari. Elektron darsliklar yaratilgan bo‘lib, o‘quv jarayoniga qo‘llanilib kelinmoqda. Chunonchi, ingliz tilini gumanitar talim yo‘nalishi talabalariga o‘rgatishda axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida tashkil qilish tizimi ham yaratilgan bo‘lib bu tizimning eng muhim jihatlaridan biri uning uzluksiz amalga oshirilishidadir. Ingliz tili fani o‘qituvchilari dars jarayonida turli kommunikatsion texnologiya, elektron resurslardan foydalanish jarayonida didaktik qonun-qoidalarni o‘quv predmetining o‘ziga xos xususiyatlariga mos tarzda amalga oshirishga ham e’tibor qaratishlari lozim. Chunki ingliz tilining fanining boshqa o‘quv predmetlaridan farqli jihat’ari: o‘quv jarayonidagi grammatik mavzular, o‘xshash sintaktik hodisalar, nutq ko‘nikma va malakalarini egallashda o‘zaro uzviy bog‘liq va uzluksiz holda o‘rgatiladi. Ingliz tilini axborot-kommunikatsion texnologiyalar vositasida o‘qitish ishlari o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

- leksikani o‘rgatish; talaffuz ustida ishlash;
- dialogik va monologik so‘zlashishga o‘rgatish;
- yozuvni o‘rgatish; - grammatik hodisalarni qayta ko‘rish va tahlil qilish.

Ingliz tili mashg‘ulotlarida texnik vositalardan foydalanish bir qator didaktik vazifalarni yechishga ko‘maklashadi:

O‘quvchilarda o‘qish ko‘nikmalari shakllanadi, yozuv malakalari takomillashib boradi, lug‘at zahirasi to‘ldiriladi, ularda chet tillarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish, bilish faolligi oshadi, dunyoqarashi kengayadi. Shuningdek, o‘qituvchi o‘quvchilarning qiziqishiga qarab topshiriqlar tizimiga o‘zgartirishlar kiritishi

mumkin, masalan, sinf jamoasini kichik guruhlarga bo'lgan holda har bir guruhga alohida-alohida topshiriqlar: tabriknoma, so'rovnoma, tarjimai hol, referat kabi matnlarni yaratish topshiriladi. Axborot-kommunikatsion texnologiyalari, kompyuter dasturlari o'quvchilarning ingliz tilida so'zlashish faoliyatini shakllantirishda ham samarali natija beradi. Bu jarayonni amalga oshirishda o'qituvchining ijodkorligi muhim hisoblanib, mashqlar turli kombinatsiyalarga uyg'unlashtirilsa, o'quvchilar tomonidan chet tildagi hodisalar o'zlashtiriladi, lingvistik qobiliyatlari shakllanadi, kommunikativ vaziyatlarni yaratishga yordam beradi, til va so'zlashuv harakatlarini avtomatlashtirishni hamda o'quvchilarning mustaqil ishlashlariga imkon yaratiladi. Ingliz tili darslarida mutaxassislar tomonidan yaratilgan elektron multimedia vositalaridan foydalanish orqali yuqori natijaga erishish mumkin. Masalan, o'quvchilarga "Grammatika" 375 bo'limini o'rgatishda, kompyuter va audiovositalardan foydalanib, fonetik mashqlarni bajartirish mumkin. Bunda tovushlar, so'zlar, iboralar va gaplar o'quvchilarga audiovositasida eshittiriladi va ekranda visual ko'rish orqali qabul qilinadi. Bu kabi vositalarning qo'llanilishining muhim jihatlari shundaki, o'quvchilar ekranda artikulyatsion hatti-harakatlarni ham kuzatadi, to'g'ri talaffuz etilishni eshitib, o'rganadi, hamda ularning xotiralarida to'g'ri namunalar saqlanib qoladi. Multimedia vositasida va elektron holatda taqdim etilgan o'quv materiallari o'quvchilarning grammatik mashqlarni individual, jamoa bo'lib bajarishida, har bir o'quvchi tomonidan berilgan savollarni to'g'ri tushunish, aniq javobni topishlarida samarali natijaga erishish va qisqa vaqt sarflash imkonini beradi. Ingliz tili fani mutaxassislarining e'tibor qaratishi lozim bo'lgan yana bir masala borki, bu chet tili fanlarining o'ziga xos bo'lgan didaktik xususiyatlaridan biri, ya'ni darsni rejalashtirishda o'quvchiga yangi mavzuni o'rgatish, yangi so'zlarni yodlatish, yangi qoidalarni tushuntirishdan tashqari har bir o'quvchining individual qobiliyatlarini, shaxsini rivojlantirish, chet tiliarini o'zlashtirishga qiziqishlarini yuksaltirish sanaladi. Bunga quyidagi vazifalarni bajarish orqali erishiladi:

- o'quvchilarning ingliz tilini o'qitish jarayonida egallagan bilim, ko'nikma va malakalaridan amaliyotda to'g'ri foydalanishga o'rgatish; o'quvchilarning imkoniyati, qobiliyati va yosh xususiyatlarini hisobga olib o'quv materiallari va

topshiriqlarni tanlash; o'qitishning turli shakl va usullari vositasida, darslarda o'rgatuvchi xarakterdagi kompyuter texnikasidagi ko'pgina dasturlar: multimedia, repititor, Flesh, Microsoft PowerPoint, Microsoft Word kabilar asosida tayyorlangan didaktik o'yinlardan foydalanish vositasida chet tili faniga o'quvchilarning qiziqishini uyg'otish:

- o'qituvchi o'quv jarayonini rejalashtirish va tashkil qilishda sinf o'quvchilarining barchasini faol harakatini ta'minlay olishga e'tibor qaratishi kerak. Chunki shaxs faoliyat jarayonida shakllanadi. Kompyuter texnikasi vositasida tayyorlangan (multimedia, repititor, Flesh, Microsoft Power Point, Microsoft Word kabilar asosida) didaktik o'yinlar yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'quvchilarga chet tillarini o'rgatishda samarali natija beradi. Ularning darsga qiziqishlarini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, Ingliz tili darslarida innovatsion usullarni qo'llash natijasida talabalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, nutqi rivojlanadi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanadi. Bunday usullar talabada bilimga ishtiyoq uyg'otadi. Talaba darslarga puxta hozirlik ko'rishga intiladi. Bu esa talabalarni ta'lim jarayonining faol sub'yektlariga aylantiradi. Ta'lim tizimi o'z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol, yetuk shaxsni tarbiyalashni vazifa qilib qo'yar ekan, kelgusida biz bo'lajak o'qituvchilar innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish yo'llarini yanada mukammalroq ishlab chiqshimiz bilan o'z xissamizni qo'shishimiz mumkin.

Adabiyotlar

1. Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori Toshkent sh., 2021-yil 19-may, 312-son
2. Qambarova, D. Y. (2022). Interactive Methods of English Teaching in Higher Education. *Oriental Journal of Education*, 2(1), 1-7.
3. Willis, J. (1981). *Teaching English through English* (Vol. 8). Harlow: Longman.
4. Elizabeth, M. E. S. (2010). *Methods of teaching English*. Discovery Publishing House.

5. Broughton, G., Brumfit, C., Pincas, A., & Wilde, R. D. (2002). Teaching English as a foreign language. Routledge.